

**MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYALARINI
BAHOLASH VA MONITORING QILISH TIZIMI****Nazarova Ziyoda Faxriddinovna**

Toshkent davlat pedagogika universiteti,

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini baholash va monitoring qilish tizimining nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Unda ta'lim jarayonida shaxsning turli madaniy muhit vakillari bilan samarali muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini aniqlash, tahlil qilish va rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani baholash mezonlari, indikatorlari, diagnostika usullari hamda monitoring mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan. Maqolada mazkur tizimni ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etish orqali talabalarning kommunikativ salohiyati, bag'rikengligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va global fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini samarali boshqarish va ularni uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, kompetensiya, baholash tizimi, monitoring, ta'lim jarayoni, kommunikativ ko'nikma, diagnostika, indikator, pedagogik yondashuv, bag'rikenglik, ijtimoiy moslashuvchanlik, global fikrlash.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические и практические основы системы оценки и мониторинга компетенций межкультурного общения. В ней рассматриваются вопросы определения, анализа и развития навыков личности эффективно вступать в общение с представителями различных культурных сред в образовательном процессе. Также раскрывается

значение критериев оценки межкультурной компетентности, индикаторов, диагностических методов и механизмов мониторинга. В статье обосновываются возможности развития коммуникативного потенциала студентов, их толерантности, социальной адаптивности и навыков глобального мышления посредством внедрения данной системы в практику образовательных учреждений. Результаты исследования направлены на совершенствование педагогических подходов, служащих эффективному управлению компетенциями межкультурного общения и их непрерывному развитию.

Ключевые слова: межкультурное общение, компетенция, система оценки, мониторинг, образовательный процесс, коммуникативный навык, диагностика, индикатор, педагогический подход, толерантность, социальная адаптивность, глобальное мышление

Abstract: This article highlights the theoretical and practical foundations of the system for assessing and monitoring intercultural communication competencies. It examines the issues of identifying, analyzing, and developing an individual's ability to communicate effectively with representatives of different cultural environments within the educational process. The article also reveals the importance of assessment criteria, indicators, diagnostic methods, and monitoring mechanisms for intercultural competence. It substantiates the opportunities to develop students' communicative potential, tolerance, social adaptability, and global thinking skills through the introduction of this system into the practice of educational institutions. The research results are aimed at improving pedagogical approaches that contribute to the effective management and continuous development of intercultural communication competencies.

Keywords: intercultural communication, competence, assessment system, monitoring, educational process, communicative skill, diagnostics, indicator, pedagogical approach, tolerance, social adaptability, global thinking.

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqotning ahamiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, bugungi kunda ta'lim oluvchidan nafaqat chuqur bilim, balki turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda samarali, tolerant va moslashuvchan tarzda muloqot qilish qobiliyati ham talab etiladi.[1;43]

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro hurmat, bag'rikenglik, tushunish va samarali hamkorlik asosida aloqa o'rnatish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya bilim, ko'nikma, qadriyat, munosabat va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga oladi. Shu sababli uni shakllantirish bilan bir qatorda, baholash va monitoring qilish ham dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini baholash va monitoring qilish tizimining mazmuni, tarkibi, mezonlari va amaliy tatbiq mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

Madaniyatlararo muloqot masalasi pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va kommunikatsiya nazariyasining tutash nuqtasida shakllangan ko'p qirrali ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu yo'nalishda kompetensiyaviy yondashuv alohida o'rin tutadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, ta'lim natijasi o'quvchi yoki talabanning ma'lum bir faoliyatni mustaqil va samarali amalga oshira olish qobiliyati bilan belgilanadi.[2;98]

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

•kognitiv komponent;

•affektiv komponent;

•xulq-atvor komponenti;

•refleksiv-tahliliy komponent.

Kognitiv komponent boshqa madaniyatlar, urf-odatlar, qadriyatlar, kommunikativ normalar va ijtimoiy xulq modellari haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Affektiv komponent esa bag'rikenglik, hurmat, empatiya va boshqa madaniyat vakillariga ijobiy munosabatni anglatadi. Xulq-atvor komponenti real muloqot jarayonida mos strategiyalarni tanlash, konfliktsiz aloqa o'rnatish va kommunikativ moslashuvni namoyon etishda ko'rinadi. Refleksiv komponent esa shaxsning o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash va o'zini takomillashtirishga tayyorligi bilan tavsiflanadi.[3;65]

Shu bois madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini baholash biryoqlama emas, balki ko'p omilli, tizimli va davomiy xarakterga ega bo'lishi lozim.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini baholash tizimining mohiyati

Baholash tizimi ta'lim oluvchining madaniyatlararo muloqotga oid bilimlari, amaliy ko'nikmalari, qadriyaviy qarashlari hamda xulqiy namoyon bo'lish shakllarini aniqlashga xizmat qiluvchi mezon, indikator, usul va vositalar majmuasidir. Mazkur tizimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat[4;76]:

- kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash;
- rivojlanish dinamikasini kuzatish;
- mavjud muammolarni aniqlash;
- individual va guruh rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim sifati va pedagogik samaradorlikni oshirish.

Baholash tizimi ob'ektivlik, izchillik, shaffoflik, diagnostiklik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanishi kerak. Aks holda, kompetensiyaga xos murakkab sifatlar to'liq aks ettirilmasligi mumkin.

Monitoring baholash natijalarini uzluksiz ravishda yig'ish, tahlil qilish va ta'lim jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan tizimli kuzatuv jarayonidir. Monitoring bir martalik nazorat emas, balki doimiy ravishda ma'lumot to'plash va ular asosida pedagogik qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi.[5;54]

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini monitoring qilishning pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u ta'lim oluvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Ikkinchidan, pedagogik ta'sir vositalarining samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi. To'rtinchidan, muammoli nuqtalarni erta aniqlash va tuzatish choralarini ko'rishga xizmat qiladi.

Monitoring natijalari asosida pedagog o'quv dasturlariga o'zgartirish kiritishi, interfaol metodlardan foydalanish darajasini oshirishi, individual maslahat va treninglar tashkil qilishi mumkin. Demak, monitoring baholashdan farqli ravishda faqat natijani qayd etibgina qolmay, balki keyingi rivojlanish istiqbollarini ham belgilaydi.[6;112]

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini aniqlashda an'anaviy test usullarining o'zi yetarli emas. Chunki ushbu kompetensiya faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat, qadriyat va munosabatlar birligida namoyon bo'ladi. Shu sababli kompleks diagnostik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bunday vositalarga quyidagilar kiradi:



So'rovnomalar orqali talabalarining qarashlari, bag'rikenglik darajasi va kommunikativ moyilliklari aniqlanadi. Kuzatuv metodi esa ularning real faoliyatdagi xulq-atvorini tahlil qilish imkonini beradi. Rol o'yinlari va vaziyatli topshiriqlar madaniyatlararo muammoli vaziyatlarda muloqot strategiyalarini tanlash qobiliyatini ochib beradi. Reflektiv esse esa talabaning o'z tajribasini tushunishi va tahlil qilish ko'nikmasini namoyon etadi.

Eng samarali yondashuvlardan biri — mezonlar asosida ishlab chiqilgan darajali baholash tizimidir. Unda kompetensiya rivojlanishining past, o'rta va yuqori darajalari belgilab olinadi. Masalan, past darajada talaba boshqa madaniyatlar haqidagi bilimga ega bo'lsa-da, amaliy muloqotda qiyinchilikka duch keladi. O'rta darajada u ayrim holatlarda moslashuvchanlik ko'rsata oladi. Yuqori darajada esa talaba turli madaniyat vakillari bilan ongli, hurmatli va samarali muloqot o'rnatadi, ziddiyatli holatlarni konstruktiv hal eta oladi.[7;45]

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini baholash va monitoring qilish tizimini ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etish muayyan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Avvalo, pedagoglarning o'zlari madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo'lishi hamda diagnostika usullaridan foydalana olishi zarur. Shuningdek, o'quv dasturlariga mazkur kompetensiyani rivojlantirishga xizmat

qiluvchi mashg'ulotlar, treninglar, interfaol metodlar va loyihaviy topshiriqlar kiritilishi lozim.

Ta'lim amaliyotida ushbu tizimni samarali qo'llash uchun quyidagilar muhim:

- baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish;
- indikatorlar tizimini belgilash;
- bosqichma-bosqich monitoring olib borish;
- natijalarni tahlil qilish va qayta aloqani yo'lga qo'yish;
- individual rivojlanish xaritalarini shakllantirish.

Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til ta'limi, pedagogika, psixologiya, xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda bu tizim alohida dolzarflik kasb etadi. Chunki bunday sohalarda mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning madaniyatlararo muloqot olib borish qobiliyatiga bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini baholash va monitoring qilish tizimi ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mazkur tizim yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki amaliy muloqot tajribasini ham boyitadi. Eng muhimi, ularda tolerantlik, madaniy farqlarga hurmat, empatiya, moslashuvchanlik va refleksiv fikrlash kabi sifatlar rivojlanadi.[8;112]

Shuningdek, monitoring natijalari pedagogik faoliyatni takomillashtirishga, dars mazmunini boyitishga va individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda baholashning jazolovchi emas, rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi muhimdir. Chunki kompetensiyaviy ta'limda asosiy e'tibor natijani qayd etishdan ko'ra, shaxs rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.[9;54]

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini baholash va monitoring qilish tizimi zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizim talabalarning madaniyatlararo muhitda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma, qadriyat va xulqiy sifatlarni aniqlash hamda rivojlantirish imkonini beradi. Baholash mezonlari, indikatorlar va monitoring

mexanizmlarining puxta ishlab chiqilishi ta'lim jarayonining sifatini oshirish, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va shaxsning global ijtimoiy makonda muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashga yordam beradi.

Kelgusida bu yo'nalishda raqamli monitoring vositalari, elektron portfoliolar, sun'iy intellekt asosidagi diagnostika usullari hamda xalqaro baholash standartlari asosida yangi metodikalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Byram, M. 1997. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters.
2. Deardorff, D. K. 2006. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization. *Journal of Studies in International Education*, 10(3), 241–266.
3. Deardorff, D. K. 2009. Assessing Intercultural Competence: Issues and Tools. In D. K. Deardorff (Ed.), *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*. Thousand Oaks, CA: Sage.
4. Deardorff, D. K. 2009. Implementing Intercultural Competence Assessment. In D. K. Deardorff (Ed.), *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*. Thousand Oaks, CA: Sage.
5. Fantini, A. E., & Tirmizi, A. 2006. *Exploring and Assessing Intercultural Competence*. Brattleboro, VT: Federation of the Experiment in International Living.
6. Fantini, A. E. 2021. *Intercultural Communicative Competence*. Brattleboro, VT: SIT Digital Collections.
7. Bennett, M. J. (Ed.). 1998. *Basic Concepts of Intercultural Communication: Selected Readings*. Yarmouth, ME: Intercultural Press.
8. Hall, E. T. 1976. *Beyond Culture*. New York: Anchor Books.

9. Jackson, J. (Ed.). 2024. The Routledge Handbook of Language and Intercultural Communication. London: Routledge.
10. Ramstrand, N., et al. 2024. Interventions and Evaluation of Intercultural Competence: A Review. Journal of Intercultural Communication.

